

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:  
№ BD-60840100-1.25  
«29.08» 2025-yil



**"TASDIQLAYMAN"**  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
professor A.A. Elmurodov  
«29.08» 2025-yil

**VETERINARIYA XIRURGIYASI  
ISHCHI O'QUV DASTURI (SILLABUSI)  
(sirtqi ta'lim shakli uchun)**

**Bilim sohasi:** 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya  
**Ta'lim sohasi:** 840000 - Veterinariya  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60840100 - Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha)

**Samarqand –2025 yil**

Fanning ishchi o'quv dasturi (sillabusi) 2021-yilda tasdiqlangan o'quv reja va fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

**S.A.Abdiyev** – SamDVMChBU “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida katta o'qituvchisi PhD.

**M.A.Ravshanov** – SamDVMChBU “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida assistenti PhD.

**Q.M.Baxriddinov** -SamDVMChBU “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida assistenti.

**Taqrizchilar:**


**D.S. Vaxidova** - ToshDAU, “Umumiy zootexniya va veterinariya” kafedrasida professori veterinariya fanlari nomzodi.

**U.B. G'afforov** – Samarqand Davlat tibbiyot universiteti “Yuz-jag' jarrohligi” kafedrasida mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Fanning ishchi o'quv-dasturi (sillabusi) “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasining 2025 yil “26” 08 dagi “1” – son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:  **B.D.Narziyev**

Fanning ishchi o'quv-dasturi (sillabusi) “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2025 yil “24” 08 dagi “1” –sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi  **X.B.Niyozov**

**Kelishildi:**

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  **Sh.X.Qurbanov**

Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

**3 (qoniqarli) baho;**

Mohiyatini tushunish;

Bilish, aytib berish;

Tasavvurga ega bo'lish;

**2 (qoniqarsiz) baho:**

Dasturni o'zlashtirmaganlik;

Fanning mohiyatini bilmaslik;

Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;

Mustaqil fikrlay olmaslik.



Samarqand, "Samarqand" nashriyoti, 2023. - 124 bet.

5. Tashtemirov R.M., "Jarrohlik kasalliklarining ilmiy asoslari". O'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023. - 156 bet.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. - 52 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. - 36 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 416 bet.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.

6. Weaver, Adrian Steiner and Guy St Jean. Bovine Surgery and Lameness, Second Edition/ © 2012 year/ Blackwell Publishing Ltd, 9600 Garsington Road, Oxford OX4 2DQ, UK

7. Tashtemirov R.M., Haydarova S. "Veterinariya oftalmologiyasi". Darslik. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti nashriyot markazi. 2024. - 223 bet.

#### Axborot manbalari

1. [www.Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
2. [www.veterinariya\\_meditsinasi.uz](http://www.veterinariya_meditsinasi.uz)
3. [www.sea@mail.net21.ru](mailto:www.sea@mail.net21.ru)
4. [www.veterinary@actavis.ru](mailto:www.veterinary@actavis.ru)

#### IX. Baholash

**Talabalarining fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.**

**5 (a'lo) baho:**

Xulosa va qaror qabul qilish;  
Ijodiy fikrlar olish;  
Mustaqil mushohada yurita olish;  
Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;  
Mohiyatini tushunish;  
Bilish, aytib berish;  
Tasavvurga ega bo'lish;

**4 (yaxshi) baho:**

Mustaqil mushohada yurita olish;

#### Fan Sillabusi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

**Fan to'g'risida ma'lumot**

Fan shifri: VX1606

Fan nomi: Veterinariya xirurgiyasi

Semestr/yil: 9-semestr/2025-2026 o'quv yili

**Kafedra: Veterinariya jarrohligi va akusherlik**

Soatlar/kreditlar: 6,0 ECTS (28 auditoriya soati, 152 soat mustaqil ta'lim)

Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami
10	10	8	152	180

**Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:**

**Auditoriya vaqti:** dars jadvaliga asosan

Talablar:

Fan uchun mas'ul kafedra: Veterinariya jarrohligi va akusherlik

**Instruktor to'g'risida ma'lumot:**

**Katta o'qituvchi PhD S.A.Abdiyev.**

Kafedra joylashgan joyi: SamDVMChBU, 3-o'quv binosi, 363-xona

Telefon: +998 93 331 36 10 ish telefoni; mobil: +998 93 331 36 10

E.mail. [abdiyev\\_s@mail.ru](mailto:abdiyev_s@mail.ru) Ish vaqti: Uchrashuvga ko'ra

**I. Fanni o'qitishdan maqsad** – "Veterinariya xirurgiyasi" - hayvonlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarining nazariy asoslarini, asosiy tushunchalarini, xirurgik kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olish tamoyillarini o'rgatish va ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

**II. Fanning vazifasi** – talablarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, jarrohlik kasalliklarida kechadigan jarayonlarga uslubiy yondashish hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

**III. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- xirurgik kasalliklarida hayvonlar organizmida kechadigan murakkab umumiy va mahalliy patologik va fiziologik jarayonlarni aniqlash uchun xirurgiyaga oid o'quv-ilmiy dastur va adabiyotlarni, hayvonni davolaganda uning organizmi himoya-moslashuv reaksiyasini hisobga olib, etiotrop, patogenetik va boshqa davolash usullarini qo'llashni;

– hayvonlarning alohida a'zo va tizimlaridagi xirurgik kasalliklarining kelib chiqish turlari va xususiyatlarini aniqlashni *tasavvurga ega bo'lishi*;

– xirurgik kasalliklarning ishlab chiqarish jarayonida oldini olish va ularga qarshi kurashishning samarali yangi chora-tadbirlarini o'tkazishni, xirurgik kasalliklarga farqlovchi tashhis qo'yish, xirurgik operatsiya o'tkazishda kerakli usulni tanlash, xirurgik kasal hayvonlarni kuratsiya qilish, kasal hayvonni davolagandan keyin kelib chiqadigan asoratlarni oldini olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

– xirurgik kasalliklarga to'g'ri tashhis qo'yish uchun umumiy va xususiy tekshirish usullarini qo'llash, kasal hayvonni qabul qilish va rasmiylashtirish, operatsion usullar va dori vositalarni qo'llash, ko'p uchraydigan barmoq va ko'z kasalliklarini davolash va oldini olish tadbirlarini tuzish va o'tkazish, xirurgik asboblarni va uskunalarni tartib va qoidalariga rioya qilib ishlatish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

#### IV. O'qitish usullari:

Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy usullardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar, kurs ishlari orqali mustahkamlab borish lozim. "Umumiy va xususiy veterinariya xirurgiyasi" fani talabalarga shikastlanishning hamma turlarini; hayvon organizmining shikastlovchi omillarga, jarohat va infeksiyaga qarshi javob reaksiyasini; klinik immunologiyasining ba'zi bir aspektlarini; etiologik va patogenetik davolash tamoyillarini; andrologiya, ortopediya va oftalmologiya kurslarini o'zlashtirishda ayrim a'zo kasalliklarining kechishini, oldini olish va davolashni; veterinariya tadbirlarini ishlab chiqarish texnologiyasiga halaqit bermasdan o'tkazish yo'llarini o'rgatish. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

"Veterinariya xirurgiyasi" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Tizimli yondoshuv.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.

Dialogik yondoshuv.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.

Muammoli ta'lim.

#### V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

5.1. "Veterinariya xirurgiyasi" fanidan rejalashtirilgan ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Ma'ruza mashg'ulotlarining:			
№	mavzulari	rejasi	soat
1-Modul. Kirish. Umumiy va xususiy veterinariya xirurgiyasi fanining ruvojlantirish bosqichlari			
1.1	"Veterinariya"	1.1.1. Veterinariya xirurgiyasi fanining	2

11	Burun kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	4
12	Tish kasalliklari.	Referat yozib tayyorlash	6
13	Yelinning xirurgik kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
14	Urug'don kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
15	Tuyoq ichki strukturasi kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
16	Sklera va ko'z ichki muhitlari kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
17	Yallig'lanishni elektr toki va yorug'lik bilan davolash.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
18	Limfangit va limfonodulitlarni davolash.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
19	Og'iz bo'shlig'i kasalliklari	Referat yozib tayyorlash	6
20	Siydik jinsiy a'zolar kasalliklarini davolash.	Referat yozib tayyorlash	6
21	Operatsion va tasodifiy jarohatlarni davolash tamoyillari.	Referat yozib tayyorlash	4
22	Taqa turlari va ularning tuzilishi.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
23	Sport va ishchi otlarni taqalash xususiyatlari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
24	Ko'z qovoqlari kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
25	Ko'zning umumiy xirurgik kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
26	Ko'z sohasida bajariladigan operatsiya turlari va ularning xususiyatlari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
Jami			152

#### VIII. Adabiyotlar.

##### Asosiy adabiyotlar

1. Niyozov X.B., "Veterinariya xirurgiyasi". Darslik. Samarqand, Nashriyot "Sarvar Mexroj Baraka" 2023. - 352 bet

2. Niyozov X.B., "Veterinariya xirurgiyasi". O'quv qo'llanma. Samarqand, Nashriyot, "Fan Ziyosi" nashriyoti 2021. - 264 bet.

3. Niyozov X.B., "Umumiy va xususiy xirurgiya". O'quv qo'llanma. Samarqand, Nashriyot "F.Nasimov" 2015. - 258 bet.

4. Tashtemirov R.M., "Veterinariya ortopediyasi". O'quv qo'llanma.



1. Jarohatlarni davolash.
2. Yopiq mexanik shikastlanishlarni davolash.
3. Aseptik yallig'lanishlarni davolash.
4. Yiringli yallig'lanishlarni davolash
5. Termik shikastlanishlarni davolash.
6. Suyak kasalliklarini davolash.
7. Bo'g'im kasalliklarini davolash
8. Pay kasalliklarini davolash.
9. Tuyuq kasalliklarini davolash
10. Ko'z kasalliklarini davolash
11. Yag'rin gematomasi va limfoekstra vazatlarini operativ davolash.
12. Kindik dabbasini operativ davolash
13. Burun kasalliklarini davolash.
14. Boshning qo'shimcha bo'shliqlari yallig'lanishini davolash.
15. Yelinning xirurgik kasalliklari
16. Prepusiy yallig'lanishi va jinsiy a'zo jarohatlarini davolash
17. Yelka nerv tugunining falaji, nervlarning falajini davolash
18. Tirsak bo'g'imining aseptik va yiringli yallig'lanishlarini davolash
19. Yelka suyagining sinishini davolash
20. Tushov bo'g'imi sohasida dermatit va ekzemalarini davolash.
21. Hayvonlar oyoqlarining noto'g'ri yerga quyishdan kelib chiqadigan tuyuqlarning tabiiy va patologik shakllarini o'rganish.
22. Noto'g'ri taqalashdan kelib chiqadigan tuyuq asosining yallig'lanishi
23. Tuyuq kasalliklarini oldini olish chora tadbirlarini o'rganish.
24. Ko'z yosh apparatining anatomo-topografik tuzulishi va uni tekshirish usullari
25. Ko'zning ichki a'zolarini tekshirish usullari

**VII. "Veterinariya xirurgiyasi" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejas**

t/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Amalga oshirish mexanizmi	Xajmi (soatda)
1	Dermatitlar.	Referat yozib tayyorlash	6
2	Ekzemalar.	Referat yozib tayyorlash	6
3	Qon tomirlari kasalliklari	Referat yozib tayyorlash	6
4	Limfa tomirlari kasalliklari.	Referat yozib tayyorlash	6
5	Asab tizimi kasalliklari.	Referat yozib tayyorlash	6
6	Miozotlar.	Referat yozib tayyorlash	6
7	Miopatozlar.	Referat yozib tayyorlash	6
8	Xavfli o'smalar.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6
9	Xavfsiz o'smalar.	Referat yozib tayyorlash	6
10	Quloq kasalliklari.	Adabiyotlardan tayyorlanib, topshiriqlarni bajarish	6

	xirurgiyasi" faniga kirish, uning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Shikast va shikastlanishlar to'g'risida tushuncha.	mohiyati, maqsadi va vazifalari. 1.1.2. Shikast va shikastlanish to'g'risida tushuncha, ulardan kelib chiqadigan iqtisodiy zarar. 1.1.3. Shikastlar tasniflanishi, hayvonlarda uchraydigan shikast turlari. 1.1.4. Sanoat-texnologik, ozuqali, ekspluatatsion, ot sporti, jinsiy, transport, harbiy shikastlanishliklar. 1.1.5. Shikast va shikastlanishliklarning oldini olish chora-tadbirlari va ularni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.	
<b>2-modul. Xirurgik infeksiya</b>			
2.1	Xirurgik infeksiya.	2.1.1. Xirurgik infeksiya to'g'risida tushuncha, uning rivojlanishida makro- va mikroorganizmlarning roli. 2.1.2. Xirurgik infeksiyaning tasniflanishi. Jarohatdagi mikroorganizmlarning rivojlanish bosqichlari: kontaminatsiya, mikroflora, infekt. 2.1.3. Infeksiyani rivojlanishi va uni yakka hokimligiga qarshilik qiluvchi himoya kuchlari. 2.1.4. Xirurgik infeksiyaning oldini olishning asosiy tamoyillari.	2
<b>3-modul. Ochiq va yopiq mexanik hamda termik va kimyoviy shikastlanishlar</b>			
3.1	Ochiq mexanik va yopiq shikastlanishlar (jarohatlar).	3.1.1. Jarohat va jarohat kasalligi to'g'risida tushuncha. 3.1.2. Jarohatlar tasniflanishi. 3.1.3. Jarohat va ularning etiologik omillari 3.1.4. Jarohat patogenez, klinik belgilari va morfologik tavsifi.	2
<b>4-modul. Suyak, bo'g'im va pay kasalliklari</b>			
4.1	Suyak kasalliklari.	4.1.1. Periostitlar, ularning rivojlanishi, kasallik belgilari, oldini olish va davolash usullari. 4.1.2. Aseptik ostit. Suyaklar nekrozi va kariyesi, ularning rivojlanishi, kasallik belgilari, oldini olish va davolash usullari.	2

		4.1.3. Suyaklar sinishi va ularning tasniflanishi, suyaklar sinishining bitish jarayonlari. Suyak sinishlarini davolash usullari. 4.1.4. Suyak sinishlaridan kelib chiqadigan asoratlar, ularni oldini olish.	
<b>5-modul. Bosh bo'yin, yag'rin, ko'krak va qorin sohalaridagi kasalliklar sohalaridagi kasalliklar</b>			
5.1	Bosh va bo'yin sohalaridagi kasalliklar.	5.1.1. Bosh sohasidagi jarohatlar, ularning etiologiyasi, klinik belgilari va davolash usullari. 5.1.2. Yuz nervi falajining etiologiyasi, klinik belgilari va davolash usullari. 5.1.3. Chalov (qiltiq) kasalligining etiologiyasi, klinik belgilari va davolash usullari. 5.1.4. Aktinomikozning etiopatogenezi, klinik belgilari, davolash va oldini olish usullari. 5.1.5. Qizilo'ngach jarohati va unga yod jismlar tiqilishi.	2
<b>Jami:</b>			<b>10</b>

**5.2. "Veterinariya xirurgiyasi" fanidan rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi**

<b>Amaliy mashg'ulotlarning:</b>			
<b>№</b>	<b>mavzulari</b>	<b>rejasi</b>	<b>soat</b>
1.	Xirurgik klinikasi ishi va yuritiladigan xujjatlar bilan tanishish.	1.1. Klinikada kasal hayvonlar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasiga rioya qilish. 1.2. Klinikada yuritiladigan hujjatlar bilan tanishish 1.3. O'quv kasallik tarixini tahlil qilish.	2
2.	O'tkir aseptik yallig'lanishni sovuq va issiq muolajalar bilan davolash.	2.1. Quruq va nam sovuq usullarini qo'llash. 2.2. Spirt-isituvchi bog'lamlarni qo'llash.	2
3.	Surunkali aseptik yallig'lanishlarni davolashda kuydirish usullarini (termokauterizatsiya)	3.1. Termokauterlar turlari. 3.2. Termokauterizatsiyaning ta'sir mexanizmi. 3.3. Kuydirish usullari.	2

	qo'llash.		
4.	Jarohatga birlamchi ishlov berish.	4.1. Jarohat yuzini va bo'shlig'ini ko'zdan kechirish, paypaslab ko'rish tartibi. 4.2. Jarohat tualeti. 4.3. Jarohatni kengaytirish, qisman kesish.	2
5.	Stomatitlarni davolash.	5.1. Stomatitlarni namoyish qilish. 5.2. Og'iz bo'shlig'ini tekshirish. 5.3. Stomatitlarni davolash.	2
<b>Jami:</b>			<b>10</b>

**5.3. "Veterinariya xirurgiyasi" fanidan rejalashtirilgan laboratoriya mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi**

<b>Laboratoriya mashg'ulotlari:</b>			
<b>№</b>	<b>mavzulari</b>	<b>rejasi</b>	<b>soat</b>
1.	Xirurgik kasal hayvonlarni klinik tekshirish usullari.	1.1. Kasal hayvondan anamnez olish. 1.2. Umumiy tekshirish usullari: kuzatish, paypaslash, passiv harakatlantirish. Perkussiya, auskultasiya. 1.3. Maxsus tekshirish usullari: tovon bo'g'imi artrozi (shpat)ga tekshirish, "tirsak" sinovi, "pona" sinovi, tuyoq qisqichini qo'llash, zond yordamida tekshirish, o'lchamlar olish.	2
2.	To'qimali terapiya uchun preparatlar tayorlash.	2.1. To'qimali terapiyaning ta'sir mexanizmi. 2.2. V.P.Filatov va N.I.Krauze bo'yicha to'qimalarni konservatsiya qilish va qo'llash usullari.	2
3.	Bo'g'im kasalliklarida sinoviyani tekshirish.	3.1. Bo'g'im sinovitlarini konservativ va operativ hayvonda namoyish qilish. 3.2. Bo'g'im suyuqligini tekshirish.	2
4.	Tuyoq kapsulasi deformatsiya turini aniqlash va uni to'g'rilash.	4.1. Tuyoq kapsulasi deformatsiya turini aniqlash. 4.2. Tuyoq kapsulasi deformatsiyada tuyoqlarni qirqish usullarini namoyish qilish.	2
<b>Jami:</b>			<b>8</b>

**VI. "Veterinariya xirurgiyasi" fani bo'yicha rejalashtirilgan talabalar kurs ishi mavzularining kalendar tematik rejasi**

**Kurs ishi mavzulari:**